



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2022 y. "29" avgust

№ 31

"Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom"ni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini baholash bo'yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 31- yanvardagi 6- son "Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom"ni tasdiqlash to'g'risida qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov